Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi	584
Raxmonova Barno Odilovna	
Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati	587
Temirova Nargiza Davlat qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish.....	590
Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li	
Hozirgi kun pedagogi.....	594
Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi	
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati	598
Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi	
Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari	602
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati.	607
Mannonova Barno	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art	611
Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	615
Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
Soatov E. M.	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati	623
Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	626
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
Mapruza Embergenova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati	636
Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari	641
Narzikulov Javohir Ikromovich	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
Д. Б. Бабаева	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике	750
Шарипов Одилжлон Гуломжон угли	

MUSIQA DARSLARIDA 4K KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI VA PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Ochilova Mohinur

SamDPI 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola XXI asr ta'limining muhim komponentlari hisoblangan 4K kompetensiyalari - tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiyani musiqa darslari jarayonida rivojlantirish imkoniyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zaruratining ortib borayotgani bilan izohlanadi. Maqolada 4K kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik omillar - innovatsion ta'lim muhiti, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik ta'minot hamda diagnostika vositalari tizimi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari musiqa darslari 4K kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi hamda ushbu jarayon samaradorligi bevosita maxsus pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishiga bog'liqligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalari, musiqa ta'limi, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion ta'lim, improvizatsiya, ansambli ijrochiligi.

Abstract: This article examines the opportunities and pedagogical conditions for developing the 4C competencies - critical thinking, creativity, communication, and collaboration - within music education, which are recognized as key components of 21st-century learning. The relevance of the study is driven by the increasing demand in modern education systems to foster not only theoretical knowledge but also practical skills among students. The paper provides a comprehensive analysis of the pedagogical conditions required for the effective development of 4C competencies, including an innovative learning environment, teachers' professional competence, methodological support, and a system of diagnostic tools. The findings indicate that music lessons offer substantial potential for the integrated development of 4C competencies, and the effectiveness of this process directly depends on the establishment of specific pedagogical conditions.

Key words: 4C competencies, music education, critical thinking, creativity, communication, collaboration, pedagogical conditions, innovative learning, improvisation, ensemble performance.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию возможностей и педагогических условий развития 4К-компетенций - критического мышления, креативности, коммуникации и коллаборации - в процессе проведения уроков музыки, рассматриваемых как ключевые компоненты образования XXI века. Актуальность исследования обусловлена возрастающей потребностью современной системы образования в формировании у обучающихся не только теоретических знаний, но и практических навыков. В статье комплексно анализируются педагогические условия, необходимые для эффективного развития 4К-компетенций: инновационная образовательная среда, профессиональная подготовка учителя, методическое обеспечение и система диагностических инструментов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что уроки музыки обладают значительным потенциалом для комплексного развития 4К-компетенций, а эффективность данного процесса напрямую зависит от создания специальных педагогических условий.

Ключевые слова: 4К-компетенции, музыкальное образование, критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация, педагогические условия, инновационное образование, импровизация, ансамблевое исполнительство.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - o'quvchilarni nafaqat chuqur bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashdir. XXI asr ko'nikmalari (21st Century Skills) deb nom olgan ushbu talablar tizimida 4K kompetensiyalari - tanqidiy fikrlash (critical thinking), kreativlik (creativity), kommunikatsiya (communication) va kollaboratsiya (collabora-



tion) alohida o'rin tutadi ^[3]. Ushbu kompetensiyalar bugungi kunda nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va kasbiy muvaffaqiyatining ham asosiy omili sifatida e'tirof etilmoqda ^[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5847-son Farmoni ^[1]. Mazkur Konsepsiya ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, jumladan, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan. 4K modelini joriy etishning strategik asosi sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 157-son Qarori. ^[2] Ushbu qaror bilan ta'lim tizimida bilimga yo'naltirilgan yondashuvdan natijaga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish belgilangan bo'lib, kompetensiyaviy yondashuv, jumladan, 4K kompetensiyalarining joriy etilishi uchun bevosita metodologik asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiq ta'limi o'zining tabiati va mazmuniga ko'ra 4K kompetensiyalarini rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarga ega. Musiqa darslarida o'quvchilar nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, balki ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarni tinglash kabi muhim hayotiy kompetensiyalarni ham egallaydilar. Bao va Chang (2024) ta'kidlaganidek, ^[3] musiqa ta'limida 4K kompetensiyalarining tizimli integratsiyasi o'quvchilarning musiqiy savodxonligini sezilarli darajada oshirish bilan birga, ularning asosiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Ayniqsa, O'zbekiston ta'lim tizimida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga yangicha yondashuvlar talab etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, musiqa darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha to'liq amalga oshirilmayapti. O'qituvchilarning atigi 34 foizi musiqa darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan muntazam foydalanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda o'quvchilar musiqiy asarlarni yuzaki darajada tinglaydilar, ularning tahlili esa faqat asarning kayfiyati va tempini aniqlash bilan cheklanadi.

Shu bilan birga, ilg'or pedagogik tajribada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari mavjud. Jumladan, 15 nafar ekspert o'qituvchining tajribasi tahlili shuni ko'rsatdiki, quyidagi metodlar yuqori samara beradi:

1. Turli ijro talqinlarini qiyosiy tahlil qilish;
2. Musiqiy asar haqida o'z fikr-mulohazalarini asoslash;
3. Musiqiy uslublarni aniqlash va tavsiflash;
4. Musiqiy shakl va ifoda vositalarini tahlil qilish;
5. Ijro xatolarini aniqlash va tuzatish yo'llarini taklif qilish.

Ekspertlarning fikricha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda musiqiy asarlarni nafaqat tinglash, balki ular haqida mulohaza yuritish, muhokama qilish va bahslashish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlari

Musiqa darslari kreativlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Improvizatsiya - kreativlikni rivojlantirishning eng samarali metodi sifatida qayd etilgan. Biroq amaliyotda improvizatsiyadan foydalanish darajasi past: o'qituvchilarning atigi 23 foisi darslarida muntazam ravishda improvizatsiya elementlaridan foydalanadi. Asosiy to'siqlar sifatida vaqt yetishmasligi (67 foiz), metodik ta'minotning yo'qligi (54 foiz) va o'qituvchilarning tayyorgarligi pastligi (41 foiz) qayd etilgan.

Musiqiy kompozitsiya va ijodiy topshiriqlar ham kreativlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida 25 ta ijodiy topshiriq tahlil qilindi. Eng samarali topshiriqlar qatoriga quyidagilar kirdi:

1. Berilgan ritmik yoki melodik model asosida o'z kuyini yaratish;

2. She'r matniga musiqa bastalash;
3. Musiqiy rasm chizish yoki musiqiy hikoya tuzish;

Kommunikatsiyani rivojlantirish imkoniyatlari

Musiqa darslarida kommunikatsiya ikki jihatda namoyon bo'ladi: musiqiy muloqot (musiqa orqali muloqot) va og'zaki muloqot (musiqa haqida muloqot). Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 72 foizi musiqa darslarida o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini qayd etgan. Biroq bu ko'rsatkich yuqori sinflarda (9-11-sinflar) 54 foizga tushadi, bu esa yosh o'sishi bilan kommunikativ faollikning pasayish tendensiyasidan dalolat beradi.

Kommunikatsiyani rivojlantirishning samarali metodlari sifatida ekspertlar quyidagilarni tavsiya etadilar:

1. Musiqiy asarlarni badiiy g'oyaviy mazmunini tahlil qilish;
2. O'quvchilarning o'z ijodiy ishlarini taqdimot qilishi;
3. "Savol-javob" musiqiy o'yinlari;
4. Kichik guruhlarda musiqiy loyihalar ustida ishlash;
5. Ommaviy tadbirlarga tayyorlash va namoyish etish.

Kollaboratsiyani rivojlantirish imkoniyatlari

Musiqa ta'limining jamoviy shakllari - xor, ansambl, orkestr - kollaborativ kompetensiyani rivojlantirishning eng tabiiy va samarali vositasidir. Tadqiqotda qatnashgan o'qituvchilarning 86 foizi musiqa darslarida jamoviy ijroning kollaboratsiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini yuqori baholagan.

Kuzatishlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra, jamoa bo'lib kuylash faoliyatida quyidagi kollaborativ ko'nikmalarni rivojlantiradi:

1. Birgalikda maqsad qo'yish va unga erishish (74 foiz o'quvchi);
2. O'zaro tinglash va moslashish (82 foiz);
3. Mas'uliyatni taqsimlash va bir-biriga ishonish (68 foiz);
4. Kelishish va murosaga kelish (71 foiz);
5. Umumiy natija uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish (77 foiz).

Guruhli loyihalar ham kollaboratsiyani rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Amaliyotda guruhli loyihalardan foydalanish darajasi nisbatan past (darslarning 28 foizida). O'qituvchilar bunga sabab qilib loyiha ishlarini tashkil etishning murakkabligi va baholash mezonlarining aniq emasligini ko'rsatadilar.

Tadqiqot natijalari musiqa darslarining 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu xulosalar Bao va Chang (2024) [6]. tadqiqotlari bilan mos keladi, ular musiqa ta'limi 4K kompetensiyalarini tizimli integratsiyalash orqali o'quvchilarning musiqiy savodxonligi va asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlagan. Shuningdek, Evenhouse (2014) [6] Umumiy musiqa ta'limida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi xulosalari ham tadqiqotimiz natijalari bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqotimizda aniqlanganidek, 4K kompetensiyalarining musiqa darslaridagi rivojlanish darajasi turlicha: kollaboratsiya (4,3) va kreativlik (4,1) nisbatan yuqori, kommunikatsiya (3,8) o'rtacha, tanqidiy fikrlash (3,2) esa past darajada rivojlanmoqda.

Tanqidiy fikrlashning nisbatan past ko'rsatkichi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, an'anaviy musiqa ta'limida ko'proq ijrochilik ko'nikmalariga e'tibor qaratiladi, tahliliy faoliyat esa ikkinchi darajali hisoblanadi. Ikkinchidan, o'qituvchilarning o'zlari ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini yetarlicha bilmaydilar. Uchinchidan, mavjud dastur va darsliklarda tahliliy topshiriqlar kam uchraydi.

Kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlari ancha yuqori baholangan. Bu musiqa san'atining tabiatan ijodiy jarayon ekanligi bilan izohlanadi. Biroq amaliyotda improvizatsiyadan foydalanish darajasining pastligi (23 foiz) tashvishli holat. Bu o'qituvchilarning improvizatsiya metodikasini yetarlicha bilmasligi va vaqt cheklovlari bilan bog'liq.

Kommunikatsiya va kollaboratsiya musiqa darslarining tabiiy komponentlari hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda xor va ansambl ijrochiligining kollaboratsiyani rivojlantirishdagi yuqori samaradorligi (4,5-4,8) ushbu nazariy xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqotimizning muhim natijalaridan biri - 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimini aniqlashdir. Innovatsion ta'lim muhiti, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik ta'minot va diagnostika tizimi - bu to'rt komponent birgalikda 4K kompetensiyalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.



Mavjud holat tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu shart-sharoitlarning amalga oshirilish darajasi past (2,1 dan 2,8 gacha). Bu esa tizimli islohotlar zarurligini ko'rsatadi.

Xususan, diagnostika tizimining eng past ko'rsatkichga ega bo'lishi (2,1) muhim muammo hisoblanadi. 4K kompetensiyalarini baholashning aniq mezonlari va vositalari mavjud emas, bu esa o'qituvchilarga o'z faoliyati samaradorligini aniqlash va yo'nalishlarni tuzatish imkonini bermaydi.

Metodik ta'minotning yetarli emasligi (2,5) ham jiddiy muammo. O'qituvchilar 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dars ishlanmalari, topshiriqlar to'plami va metodik qo'llanmalarga ehtiyoj sezadilar. Mavjud dasturlarda kompetensiyaviy yondashuv elementi sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, aniq mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

O'qituvchi tayyorgarligi masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi. O'qituvchilarning atigi 18 foizi 4K kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha yuqori darajada tayyor. O'qituvchilarning aksariyati maxsus tayyorgarlikdan o'tish zarurligini tan olishi - bu sohada malaka oshirish dasturlarini tashkil etish dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati shundaki, unda aniqlangan imkoniyatlar va pedagogik shart-sharoitlar tizimi asosida musiqa ta'limida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali modellari ishlab chiqilishi mumkin. Bundan tashqari, diagnostika vositalarining takomillashtirilishi o'qituvchilarga o'z faoliyati natijalarini ob'yektiv baholash va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Musiqa ta'limi 4K kompetensiyalarini - tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiyani - rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Xususan, ansambl ijrochiligi kollaboratsiyani (4,3), improvizatsiya va ijodiy topshiriqlar kreativlikni (4,1) rivojlantirishda yuqori samara beradi. Kommunikatsiya (3,8) va ayniqsa tanqidiy fikrlash (3,2) ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti.
2. Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur:
 - a) innovatsion ta'lim muhiti (zamonaviy jihozlar, raqamli resurslar, moslashtirilgan makon);
 - b) o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi (4K mohiyatini tushunish, metodlarni egallash, reflektiv ko'nikmalar);
 - c) metodik ta'minot (dasturlar, dars ishlanmalari, didaktik materiallar);
 - d) diagnostika va baholash tizimi (aniq mezonlar, vositalar, monitoring).
3. Amaliyotda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada ta'minlanmagan: innovatsion ta'lim muhiti (2,4), o'qituvchi tayyorgarligi (2,8), metodik ta'minot (2,5), diagnostika tizimi (2,1). Eng muammoli soha – diagnostika tizimi bo'lib, 4K kompetensiyalarini baholashning aniq mezonlari va vositalari mavjud emas.
4. 4K kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu har bir kompetensiyani alohida emas, balki ularning o'zaro bog'liqligida rivojlantirishni nazarda tutadi. Masalan, ansambl ijrochiligi nafaqat kollaboratsiyani, balki kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash va kreativlikni ham rivojlantiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. (2019, 29 aprel). "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 157-son Qarori. (2024, 27 mart). "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Qurbonova, B. Q., & Erkinova, N. A. (2025). Zamonaviy ta'limda 4K modeli tushunchasi va uning roli. *Central Asian Journal of Academic Research*, (5) .
4. Ismoilova, Sh. B. (2025). Boshlang'ich ta'limda o'qitishning "4K" modeli texnologiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari. *Tadqiqotlar*, 60(3), 75–78.
5. Axmedova, N. (2024). Boshlang'ich sinfda 4 K modeli asosida o'qitish zamonaviy ta'lim taraqqiyotidagi o'rni. *Zenodo* .
6. Bao, N., & Chang, Y.-L. (2024). Systematic integration of 4C skills in music education in the 21st century. *Malaysian Journal of International Relations*, 12(1), 45-62.
7. Bao, N., & Chang, Y.-L. (2024). The differences in 21st century 4C skills among diverse university choirs in China. *Fakulti Muzik dan Seni Persembahan*, 18(2), 112-128.
8. Evenhouse, L. (2014). 21st century learning skills: The 4Cs in general music. *Illinois Music Educator*, 75(1), 24-28.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.